

EHM UCHUN DASTURGA BO'LGAN MULKIY HUQUQLARDAN FOYDALANISH LITSENZIYA SHARTNOMA № 1/3

Toshkent shahri

« 13 » NOYABR 2023-yil

«GLOBAL BUILING INVESTMENTS »MChJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktori AMINOV.M.M.

(keyingi o'rinlarda "Foydalanuvchi") va fuqaro GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH (AA9735475 pasport TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMANI IIB, IFTIHOR 7-TOR 8-UY)

(F.I.Sh., pasport, yashash joyi) (keyingi o'rinlarda "Muallif") ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Muallif ushbu shartnomaga muvofiq o'zi yaratgan **CyberDoc Beta** nomli EHM uchun dasturga (keyingi o'rinlarda "Dastur") bo'lgan *mutlaq bo'lmagan* mulkiy huquqlarni Foydalanuvchiga foydalanish litsenziyasi asosida foydalanishga ruxsat berish, Foydalanuvchi esa Muallifga mazkur shartnomada belgilangan miqdorda mualliflik haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu shartnomaga muvofiq Foydalanuvchiga foydalanish uchun topshirilayotgan mutlaq bo'lmagan mulkiy huquqlar Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlariga dahl qilmaydi.

1.3. Muallif Foydalanuvchiga 24.11.2023 sanasiga qadar Dasturni topshirishi shart.

1.4. Mazkur shartnoma asosida Dasturdan foydalanish huquqining hududi TOSHKENT SHAHRI hisoblanadi.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

2.1.1. ushbu Shartnoma bo'yicha olingan huquqlardan o'z xohishiga ko'ra foydalanish;

2.1.2. Dasturni har qanday davlat organlari va tashkilotlarda maxsus ishonchnoma yoki qo'shimcha tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish huquqini himoya qilish.

2.2. Foydalanuvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

2.2.1. Muallifga shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda mualliflik haqini to'lash.

2.3. Muallif quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. ushbu shartnomada belgilangan tarzda hamda miqdorda mualliflik haqini olish,

2.3.2. o'zining shaxsiy nomulkiy huquqlariga Foydalanuvchi va uchinchi shaxslar tomonidan amal qilinishi.

2.4. Muallif quyidagi majburiyatlarga ega:

2.4.1. Ushbu shartnomada belgilangan muddatda Dasturni topshirish;

2.4.2. Dasturga bo'lgan *mutlaq bo'lmagan* mulkiy huquqlarni Foydalanuvchiga o'tkazish. Bunda Muallif Foydalanuvchiga Dasturning yagona muallifi ekanligiga, shuningdek Dasturni yaratishda uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmagandligiga kafolat beradi. Bosharti Foydalanuvchiga nisbatan uchinchi shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining buzilganligi xususida da'vo kelib tushsa, Muallif mustaqil va o'z hisobi evaziga mazkur holatlarni va bildirilgan da'volarni hal qilishga kafolat beradi.

3. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV SHARTLARI

3.1. Foydalanuvchi ushbu shartnomaga ko'ra Muallifga mazkur shartnomaga muvofiq mualliflik haqining umumiy hajmi 1 000 000 (bir million) so'mni to'laydi.

3.2. Mazkur shartnomaning 3.1. bandida belgilangan mualliflik haqini Foydalanuvchi Muallifga quyidagi tartibda to'laydi:

100 % ushbu shartnomani imzolagandan so'ng 12 oy davomida.

4. SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

4.1. Mazkur shartnoma taraflarning o'zaro yozma roziligi bilan Dasturning tayyor original shakli Foydalanuvchiga topshirilguniga qadar bekor qilinishi mumkin.

4.2. Shartnomani bir taraflama bekor qilish ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzgan holatlardagina yo'l qo'yiladi.

4.3. Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taraflardan biri mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, boshqa taraf bunday xatti-harakatlar oqibatida o'ziga yetkazilgan zararni, shu jumladan, moddiy zararni to'liq miqdorida undirish huquqiga ega.

5.2. Dastur Foydalanuvchiga taqdim etilguniga qadar Muallif tomonidan bir taraflama bekor qilgan taqdirda, Muallif Foydalanuvchiga yetkazilgan zararni, shuningdek, boy berilgan foydani to'lashi shart.

6. FORS-MAJOR

6.1. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun, agar ushbu muvaffaqiyatsizlik ushbu shartnomani tuzgandan keyin yuzaga keladigan fors-major holatlari, xususan: yong'in, suv toshqini, zilzila, harbiy harakatlar, ish tashlashlar, keskin epidemik holatlarning vujudga kelishi, shuningdek, davlat organlarining oldindan bilib bo'lmaydigan xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa va mazkur holatlar

ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.

7. NIZOLARNI HAL QILISH

7.1. Mazkur shartnomadan yuzaga kelgan yohud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar hech qanday istisnosiz muzokalar orqali hal qilinadi. Talabnoma yuborish tartibi taraflar uchun majburiydir.

7.2. Agar taraflar muzokalar orqali nizolarni hal qila olmasa, tegishli nizo sud tartibida hal qilinadi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati tugagach, taraflarning kelishuviga muvofiq o'rnatilgan tartibda shartnomaning muddati uzaytirilishi yoki yangi shartnoma tuzilishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnoma taraflarning har biri uchun bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada tuzildi. Ushbu shartnomaga barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar faqat yozma shaklda kiritiladi hamda har ikki tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsagina, haqiqiy hisoblanadi.

9. TARAFLARNING REKVIZITLARI

«Foydalanuvchi»	«Muallif»
<p>OOO «GLOBAL BUILDING INVESTMENTS» Ташкент, Юнусабадский р-он., ул. Чумакова дом.8. Тел: +(998 90) 977-25-50 Р/с: 2020 8000 0046 4593 4001 АТБ «УЗСАНОАТКУРИЛИШБАНК» БОШ ОФИС МФО: 00440 ИНН: 300 570 644 ОКОНХ: 83200</p>	<p>GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH (AA9735475 pasport TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMANI IIB, IFTIHOR 7-TOR 8-UY)</p>
<p><i>Султамат М.М.</i></p>	<p><i>[Handwritten signature]</i></p>